

O'ZBEKISTONDA SMART TURIZM

XILOLA OXUNOVA ABIDJAN QIZI

CHEMISTRY INTERNATIONAL UNIVERSITY IN TASHKENT

TURIZM YO'NALISHI 3-BOSQICH TALABASI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada smart turizm tushunchasi, innovatsiyalarni turizm sohasiga olib kirish zaruriyati va axborot texnologiyalarining turistlar sayohati davomida ularga qanchalik qulayliklar yaratib berayapgan haqida fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan. Shuningdek boshqa izlanishlar, mamlakatimizda turistlar uchun yaratilgan platformalar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: *smart turizm, axborot texnologiyalari, Uzbekistan Pass, turizm rivojlanishi, "Tabarruk ziyorat" platformasi, Wi-Fi zonalari, "Touristic Evaluation" AT.*

KIRISH

Dunyoda jamiyat kundan kunga rivojlanib borarkan, albatta ular birinchi navbatda o'zlarining ishlarida va hayotiy faoliyatlari davomida qulayliklarga ega bo'lishni xohlab borishadi va shunga harakat qilishadi. Zamonaviy dunyoda insonlarning aqliy qobiliyatlarini rivojlanib borgani sayin yangi texnologiyalar, yangicha innovatsiyalar paydo bo'lyapti. O'z navbatida turizm sohasida ham axborot texnologiyalarini ko'rishimiz va bunga nisbatan talabning ham oshib boryapganligi sezishimiz qiyin emas. "Smart turizm", bu atama barcha sohalar qatori turizmda ham qo'llanib kelinyapti. Smart turizmni avval nima ekanligiga e'tibor qaratishimiz kerak. Sun'iy intelektning kirib kelishi, inson resurslari faoliyatiga yengillik olib kirish maqsadida axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayonlarining turizmda qo'llanilishi deb misol tariqasida tushunsak bo'ladi. Turistlarning sayohatlari davomida ularga va turistik mahsulot taklif qiluvchilarga

qulaylik yaratib berishda yangi platformalar, yangi texnologiyalar va innovatsiyalar juda muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Aynan turizm sohasida AKT ning rivojlantirilishi bo‘yicha olib borilyapgan ishlar, kuzatuvchilarning fikr va mulohazalarini izlanuvchilar tomonidan ko‘rib chiqilishi ushbu masala naqadar dolzarb va muhim ekanligini bildiradi. Quyida turizmga axborot texnologiyalarining olib kirilishi mana shu sohaning rivojlanishiga ta’sir etishi va turistlar oqimining ko‘payishi uchun turtki bo‘lishini aks ettiruvchi fikrlar va olib borilgan ishlar haqida ma’lumot berilgan.

Turizm sohasi rivojlanishining hozirgi bosqichida axborot texnologiyalari va dasturiy ta’midot muhim o‘rin tutadi. Texnologik taraqqiyot turizm faoliyatiga shiddat bilan kirib bormoqda, xususan, GPS navigatsiyasidan foydalangan holda mobil telefonlar uchun noyob multimedia qo‘llanmalari ishlab chiqilmoqda va sayyoohlarga taklif etilmoqda. Turistik biznes- tadbirkorlikning harakatlanuvchi yo‘nalishi hisoblanadi. Soha vakillari doimiy ravishda mijozlar bilan aloqada bo‘lishlari, har qanday vaziyatni masofadan turib muvofiqlashtirishlari, har qanday savol va sharhlarga imkon qadar tezroq javob berishlari, so‘nggi daqiqalargacha ham sayohatlar va ekskursiyalar putyovkalarini taklif qilishga tayyor bo‘lishlari kerak. Bunda turistik agentliklarga maxsus ishlab chiqilgan mobil ilovalar muhim yordamchi bo‘ladi[1].

Ushbu ilmiy qarashlarda turistlarga mahsulot va xizmatlarimizni sotishda multimedia vositalaridan foydalanish, ularga taklif qiladigan mahsulotimiz to‘g’risida ma’lumot berish qulay bo‘lishi haqida aytib o‘tilgan. Turkiyalik mutaxassis K.Chinar bugungi kunda mobil texnologiyalar asosidagi innovatsion texnologiyalar iste’molchilarga ya’ni turistlarga turistik mahsulotlar uchun talabni shakllantirish, ehtiyojdan kelib chiqib o‘zgartirish va sotib olishni ta’minlashda, hamda xizmat ko‘rsatish jarayonlarini boshqarish va tarqatish vositalarini taqdim etish orqali turistik sanoatning globallashuvini qo‘llab-quvvatlash uchun imtiyozlar taqdim etadi deb hisoblaydi[2].

Bu izlanishdan ham ko‘rish mumkinki tur paketni tanlash jarayonida platforma orqali sotib olish turist uchun ham agentliklar uchun ham anchagina yengillik bera oladi. Turist xizmatlarni va mahsulotni erkin tanlashi va sotib olishi mumkin bo‘ladi. Sayohatchilar uchun eng katta ishlanmalardan biri turli sayyohlik xizmatlarini o‘z ichiga olgan Uzbekistan Pass loyihasi bo‘ldi. Uzbekistan Pass-bu O‘zbekiston bo‘ylab keng ko‘lamli sayyohlik xizmatlarini ko‘rsatadigan birinchi va hozirgacha yagona milliy mahsulot. Ushbu ilova mamlakatda smart turizmni rivojlantirish uchun platforma bo‘lishi mumkin. Uzbekistan Places mavjud xizmatlar va ilovalar bilan integratsiyalashgan bo‘lib, bu xizmatni mamlakatning istalgan nuqtasida sayohatchilar uchun qulay va tezkor qiladi. Ushbu rivojlanishning o‘z sayti va mobil ilovasi mavjud, uni Play Market yoki Appstore-dan yuklab olish mumkin. Shuningdek, kompaniya ko‘p tilli cho‘ntak qo‘llanmalarini ishlab chiqdi. Uzbekistan Pass foydalanuvchilari ularni mutlaqo bepul olishlari mumkin. Qo‘llanmalar O‘zbekistonning har bir hududi, diqqatga sazovor joylari, oshxonasi va bayramlari haqida batafsil ma’lumot beradi. Bundan tashqari, ilova orqali siz turistik paketni sotib olishingiz yoki qo‘llanma xizmatlariga buyurtma berishingiz mumkin[3].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bu ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki demak Uzbekistan Pass platformasi kabi platforma yaratilishi O‘zbekistonga kelgan xorijiy turist uchun anchagina yengillik beradi. Mamlakatimiz haqida ma’lumotga ega bo‘lmagan xorijlik sayohatchi uchun qulay usulda ma’lumot olish usuli ham hisoblanadi. Yuqorida ma’lumotlardan ko‘rishingiz mumkinki Ozbekistonda turizm rivojlanishida axborot texnologiyalari sekin asta kirib kelyapti, demak biz asosan shahar markazlarida joylashgan turizm maskanlari va mehmonxonalari haqida ma’lumotlarni ushbu platformalarda ko‘rishimiz mumkin. Qishloq turizmi ham bizda sekin asta rivojlanyapti, shunday ekan qishloqdagi turistik ziyyaratgohlar haqidagi ma’lumotlarni yanada ko‘proq platformaga kiritishimiz zarur. Institutsional innovatsiyalar turizmda, shuningdek yondosh tarmoqlarda yangi qoidalar va tartibga solish tizimlarini shakllantiradi. Ular ma’muriyat, xususiy tarmoq va sayyohlik joylaridagi jamoatchilik o‘rtasida hamkorlikning yangi tizimlari va shakllarini

yaratadi. Masalan, 30 kungacha vizasiz rejimga kiruvchi mamlakatlar sonini oshirish turoperatorlarni ushbu mamlakatlardan O‘zbekiston hududiga keluvchi sayyoohlarning qator xatti-harakatlari yuzasidan zimmalaridagi mas’uliyatdan xalos qildi[4]. Davlatimizda olib borilyapgan islohotlar zamirida ham iqtisodiyotimizning rivojlanishiga ijobjiy ta’sir etuvchi turizm sohasiga keng imkoniyatlar ochib berilyapgani va turistlarning kirishi uchun qulayliklar yaratilyapgani turizmnинг iqtisodiyotimizning “driver” sohalaridan biri ekanligini yaqqol ko‘rsatib turadi.

“Tabarruk ziyorat” turizm platformasi turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo davlatlar turizm salohiyatini oshirish hamda turistik obyektlar to‘g’risida ma’lumot berishga mo‘ljallangan. “Tabarruk ziyorat” turizm platformasining maqsadi turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo mamlakatlarda ziyorat turizmi obyektlari haqida to‘liq ma’lumot berish, aholining qiziqishini oshirish, sayyoohlarning ushbu obyektlarga va umuman mamlakatga tashrif buyurishi, obyektlar to‘g’risidagi ma’lumotlarni muntazam ravishda joylashtirish va yangilash, sayyoohlarning sharhlari, ular uchun tavsiyalar, joylarni onlayn ko‘rish uchun media kutubxonani yangilashdan iborat[5].

“Tabarruk Ziyorat” Platformasini ishlab chiqish bo‘yicha loyihani amalga oshirishdan maqsad “Tabarruk Ziyorat” brendini Internet tarmog‘ida targ‘ib qilish, shuningdek, Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo mamlakatlarda ziyorat turizmi obyektlari haqida to‘liq ma’lumot berish, aholining qiziqishini oshirish, sayyoohlarning ushbu obyektlarga va umuman mamlakatga tashrif buyurishi, obyektlar to‘g’risidagi ma’lumotlarni muntazam ravishda joylashtirish va yangilash, sayyoohlarning sharhlari, ular uchun tavsiyalar, joylarni onlayn ko‘rish uchun media kutubxonani yangilashdan iborat.

Vazifalar: - turizm sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribani to‘plash va tahlil qilish hamda Internet tarmog‘ida tarixiy va boshqa obyektlar, shu jumladan ziyorat turizmiga yo‘naltirilgan loyihalar to‘g’risidagi ma’lumotlarni taqdim etish;

- amaldagi qonun hujjatlarini, ya’ni Turk dunyosi doirasida tasdiqlangan “Tabbaruk Ziyorat” Turizm konsepsiysi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Tabarruk Ziyorat Platformasining funksionalligiga talablarni shakllantirish;

- tabarruk Ziyorat Platformasining tegishli modullarini ishlab chiqish[6]. Platformani ishlab chiqish maqsadlarini ko‘rib chiqdik. Aynan mana shunday istiqbolli loyhalarning mavjud ekanligi, smart turizmning rivojlanishi naqadar zarur ekanligini ko‘rsatadi. “Touristic Evaluation” AT Axborot tizimini ishlab chiqishdan ko‘zlangan maqsad turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish va turistik industriya ob'ektlarini tasniflash jarayoni hamda joylashtirish vositalarining yagona elektron reestrini tashkil etgan holda ularni turistlar tomonidan QR-kod orqali baholashning raqamlashtirish tizimini ishlab chiqishdan iborat. Axborot tizimi ishga tushirilgandan keyin qog'oz hujjat aylanishi (90%) ga kamayadi, to‘lov imkoniyati (90%) elektron shaklga o‘tkaziladi, ishchi jarayonga sarflanadigan vaqt (80%) ga qisqaradi.

Ushbu axborot tizimi yordamida quyidagi jarayonlar raqamlashtiriladi:

- joylashtirish vositalarining yagona elektron reestrini tashkil etish;
- QR-kodlar orqali sayyoohlarni baholashni raqamlashtirish va o‘z tajribalarini osongina baholash va fikr-mulohazalarini bildirish imkonini yaratish;
- turistik obe’ktlarning markazlashtirilgan ma’lumotlar bazasini shakllantirish;
- turizm sanoatining shaffofligi, hisobdorligi va umumiyligini darajasini nazorat qilish.

Smart turizmni axborotlashgan shaklini turli xil platformalar shaklida yaratilishi turizm ma’lumotlarini raqamlashtirilishini va axborotlarning ishonchli yig’ma holatini saqlashimizda ham qulaydir.

Turizmda sayohat qilyapgan shaxs birinchi navbatda o‘zi tashrif buyuradigan manzilning qulayliklari va ana shu yer haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish uchun asosan internetdan foydalanadi. Ko‘plab turistik manzillar, mehmonxonalar va turistik agentliklar to‘g‘risidagi ma’lumotlar turli xil ijtimoiy tarmoqlarda topiladi lekin bu hammasi ham emas. Mobil texnologiyalar barcha uchun tez va qulay axborot almashinish vositasiga aylandi. Turistlarga ham aynan ularning talabiga mos ravishda platformalar yaratilishi barcha turizm sohasiga aloqador bo‘lgan yo‘nalishlar uchun ta’luqlidir.

Mamlakatning ichki turizmi rivojlansagina tashqi xorijlik turistlarning oqimiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Chunki avvalo o‘z aholisiga qulay turistik muhit yaratib bera olgan

mamlakatga turistlar ishonch bildirib tashrif buyuradi. Wi-Fi zonalarining ko‘paygani aholiga yanada qulaylik yaratdi. O‘zbekiston aholisi orasida internet aloqasidan foydalanish bo‘yicha aholida tushunchalar paydo bo‘lgan va hozirda bu ko‘rsatkichlar yetarlicha ko‘p desak bo‘ladi. Statistik ma’lumotlardan ko‘rsak bo‘ladiki yildan yilga internet tarmog‘iga ularishlar soni oshib boryapti. Bu ko‘rsatkichlar yaxshi albatta, negaki, odamlar internet tarmoqlaridan foydalangan holda ko‘plab foydali bo‘lgan ma’lumotlarni olishlari mumkin[7].

XULOSA

Yuqoridagi ma’lumotlar va qilinyapgan ishlardan xulosa qiladigan bo‘lsak axborot texnologiyalari zamon talabi ekan turizmda ham axborot texnologiyalarisiz rivojlanishga erishish mushkul bo‘lib qoladi. Dunyoning ko‘plab mamlakatlari smart turizmni qo‘llab kelyapti va ularda rivojlanish ko‘rsatkichi ancha yuqori. Shunday ekan biz ham O‘zbekistonda turizimni rivojlantirish uchun axborot texnologiyalaridan yanada ko‘proq va samaraliroq foydalanishimiz hamda buning ustida loyhalar ishlab chiqishimiz zarur.

O‘zbekistonda birinchi navbatda sayohatchilarni yurtimizning go‘zal turistik manzillariga qiziqishlarini uyg’otuvchi roliklarning tayyorlanish jarayonlarini ko‘paytirishni maqsad qilib qo‘yish kerak. Mahalliy sayohatchilarimiz uchun qulay shaklda platformalar orqali tur paketlarni sotib olishlari, ular o‘z xohishlariga ko‘ra tur paket elementlarini o‘zgartira olishlariga imkon beruvchi ilovalar yaratilishi muhim. Hali ko‘pchilikka tanish bo‘lishga ulgurmagan turizm manzillari haqida ijtimoiy tarmoqlarga ko‘proq ma’lumot joylash va bunda asosan ma’lumot to‘plash uchun turizm sohasi shuningdek ushbu sohaga yondosh bo‘lgan yo‘nalishlarda tahsil oluvchi talabalarni amaliyatga jalg qilishimiz muhim hisoblanadi. Bu bilan turistik manzillar haqida elektron shakldagi axborotlarimizni hajmini oshirishimiz va bo‘lajak soha vakillari uchun ham foydali amaliyotni tashkil qilgan bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali, TURIZM SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOBIL INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI Erkayeva Gulbaxor Panjiyevna, 5/2022, sentyabroktiyabr (№ 00061), 398-bet

2. K. Chinar. Role of Mobile Technology for Tourism Development. The Emerald Handbook of ICT in Tourism and Hospitality. ISBN: 978-1-83982-689-4.

3. Smart-туризм в Узбекистане | ICTNEWS, Smart-туризм в Узбекистане 28.01.2019, Абдурахман Рахимов, главный специалист Управления по развитию смарт-туризма и ИКТ

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagи PF-5326-sonli “O‘zbekiston Respublikasi sayyohlik salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratish bo‘yicha qo‘srimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonidan

5. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot>

6. <https://reestr.uz/projects/1911?type=passport>

7. <https://reestr.uz/projects/1756?type=passport>